

Jo'rayeva Husnigul Bo'riyevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

doktoranti

husnigul1984@gmail.com

MUMTOZ ZAMONA BUYUKLARI

Annotatsiya. Maqolada o'z davrining jasur sarkardasi, shoh va shoir Husayn Boyqaro – Husayniy shaxsiyati, adabiy merosi, she'riyatining o'ziga xos jihatlari xususida so'z yuritilgan. Husayn Boyqaro hukmronligida yetishib chiqqan buyuk daholar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning ibratli hayot yo'li, boy ijodiy merosiga doir qarashlar saralangan. Husayniy va Jomiy munosabatlari, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro do'stligi haqida “Risola”da berilgan lavhalar ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Shoh, shoir, mutafakkir, Hirot, Xurason, “Risola”, “Devon”, maslakdosh.

Хуснигул Буриевна Джураева

Докторант Ташкентского государственного университета узбекского

языка и литературы имени Алишера Навои

husnigul1984@gmail.com

ВЕЛИКИЕ ФИГУРЫ КЛАССИЧЕСКОЙ ЭПОХИ

Аннотация. В статье рассматривается личность, литературное наследие и уникальные черты поэзии Хусейна Байкары, известного также как Хусайний, смелого полководца, царя и поэта своего времени. Освещаются примеры жизни и богатого творческого наследия великих гениев — Абдурахмана Джами и Алишера Навои, которые прославились в эпоху правления Хусейна Байкары. Также подробно анализируются взаимоотношения Хусайния и Джами, а также дружба Алишера Навои с Хусейном Байкарой, с опорой на научные данные и эпизоды, представленные в “Рисале”.

Ключевые слова: царь, поэт, мыслитель, Герат, Хорасан, “Рисала”, “Девон”, единомышленники.

Khusnigul Buriyevna Jo'rayeva

Doctoral Candidate at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek

Language and Literature

husnigul1984@gmail.com

GREAT FIGURES OF THE CLASSICAL ERA

Abstract. The article delves into the personality, literary heritage, and distinctive aspects of the poetry of Hussein Baykara, also known as Husayniy, a courageous commander, king, and poet of his time. It examines the exemplary lives and rich creative legacies of the great geniuses Abdurahman Jami and Alisher Navo'i, who emerged during Hussein Baykara's reign. The relationships between Husayniy and Jami, as well as the friendship between Alisher Navo'i and Hussein Baykara, are explored based on scholarly insights from the episodes presented in "Risola".

Keywords: King, poet, thinker, Herat, Khorasan, "Risola," "Devon," like-minded.

Kirish

Jasur sarkarda, temuriy hukmdorlardan biri Sulton Husayn Boyqaro 1469-yil Xurosonni qo'lga kiritgach, umrining oxriga qadar mamlakatni adolat bilan boshqargan. Xuroson muzofotining iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohada rivoj topishiga hissa qo'shgan. O'zbekiston xalq shoiri E.Vohidov ta'kidlaganidek [5, 5 b], jahon tarixida ham shoh, ham shoir bo'lgan zotlar u qadar ko'p emas. Turkiy xalqlar orasida she'r yozmagan hukmdor kam bo'lgan. E'tibor qaratilsa, shohlik nasldan- naslga qanday meros bo'lib o'tgan bo'lsa, ilm-fan, badiiy adabiyotga muhabbat ham qondan-qonga o'tib kelgan. XV asr ikkinchi yarmi XVI asr boshlarida ilm-fan, san'at va madaniyat markazi bo'lgan poytaxt Hirotda Husayn Boyqaro nafaqat podshoh, balki shoir sifatida ham mashhur bo'lgan. U "Husayniy" taxallusi bilan turkiy va forsiy tilda ijod qilgan. Husayniy qalamiga mansub "Risolai Husayn Boyqaro" asari hamda "Devoni Sulton Husayn Boyqaro" she'rlar to'plami bizgacha yetib kelgan. Buning boisi Husayniy zamonasining mashhur kotibi Sultonali Mashhadiyga o'z asarlarini qayta-qayta ko'chirtirgan. Ayni paytda buyuk mutafakkir Alisher Navoiy topshirig'i bilan ham

Husayniy “Risola”si va “Devon”i nafis nasta’liq xatida kitobat qilingan. Husayniy “Devon”i qo’lyozma nusxalari ko’zdan kechirilganda devonga kiritilgan g’azallar soni turlicha bo’lib, bu holatni “Devon”ning ko’chirilish tarixi bilan izohlash mumkin. Kotib Sultonali Mashhadiy hukmdori Husayn Boyqaro g’azallarining yangi yozilgan namunalarini “Devon”ning keyingi ko’chirgan qo’lyozmalariga mamnuniyat bilan kiritib borgan.

Adabiyotlar tahlili

Husayn Boyqaro shaxsiyati, faoliyati hamda ijodiy merosini o’rganish o’zi hayotlik vaqtidayoq boshlangan. Akademik B.Valixo’jayev (2002) Husayniy faoliyatining zamonasida o’rganilganligini quyidagicha izohlaydi: “...uning shoh bo’lganligi hamda o’zining tarixi, ya’ni hukmronligi davri voqealari, jumladan, uning nasabi va hasabini yozishga ishora qilingani bo’lsa, ikkinchi tomondan, o’sha davr ilm va adab vakillarining undan minnatdorchiligini ifodalash uchun bu mavzuga murojaat etishlari bois bo’lgan edi” [8, 4 b]. Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Mirxond, Xondamir, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Zayniddin Mahmud Vosifiy, Mirzo Muhammad Haydar Dug’lat, Sharafiddin Roqimiy singari mualliflarning ilmiy asarlari va sarguzashtnomalarida Husayn Boyqaro siymosiga oid ma’lumotlar mavjud.

1485-yilda yozilgan “Risolai Husayn Boyqaro” asarining ilm-fanda ikkita qo’lyozma nusxasi ma’lum. Husayniy risolasi O’zbekistonda ilk marotaba professor Hamid Arasli (1966) tomonidan “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalining 3-sonida e’lon qilingan. Bu esa risolaning tez orada bir qator tadqiqotchilarning diqqat-e’tiborini tortishiga sabab bo’ladi.

Husayniy risolasida barcha maxluqotlar ichida sharaflil qilib yaratilgan Inson o’z yaratuvchisiga umr bo’yi hayot in’om etgani, rizq bergani, hammadan mo’tabar qilgani uchun shukronalar bajo

keltirib, farz va sunnatlarni bajarib borishi shart ekanligini uqtiradi. “Bovujudi, ulkim bani odamni jamei maxluqotg’a mukarram qildikim, mundin ortuq martaba bo’la olmas va mundin biyik rutbani aql bovar qilmas. Va lekin ne’mat shukrin ado qilg’ang’a va’da qildikim, inoyatni toza va ne’matni beandoza qilg’aykim va “lain shakartum la azidannakum” bu ma’nog’a muxbirdurur. Agarchi aning ne’matlarining shukri adosida kishining har sari mo’yi bir til va alardin har til har dam ming sanog’a qoyil bo’lsa, andoqkim sazovordurur shukri ne’mat bajoy kelturmak mumkin ermas” [5, 12 b]. Ayni paytda, muallif Alloh bergan umrni, martabani zoye’ qilmay yurtni obod, elning tinch va farovon yashashi uchun sarflayotganidan faxrlanadi: “Va ba’zining zamonida suduri zulmpesha va navvobi xorijandisha avqofni buzdilar va aning hosili bila majlisi ayshu tarab yasab, navoyi fisqu fujur tuzdilar, bu miskin avqofg’a mutaayyin qilg’anlar bari xaroblarni ma’mur va istihqoq ahlin shodmonu masrur qildi. Va alar zamonida avqof buzulg’an jihatdin talaba mag’mumu mudarris mahrum bo’lsa, holo shukrkim dorus-saltanatda taxminan yuz havzai dars bo’lg’aykim, fazoili diniya va ulumi yaqiniya adnoi va Rum aqsosidin Chin sarhadig’a degincha jamei islom bilodidin qobil toliblar bu ovoza va muzokarai beandozani eshitib g’urbat mashaqqatin ixtiyor qilib, bu taxtgohg’a yuzlanurlar... Va bu mazkur bo’lg’an madorisg’a yaqin xonaqoh bo’lg’aykim, har qaysida ehtiyoj ahli beg’oyat va istihqoq xayli benihoyat xursand va bahramand bo’lurlar” [5, 10-11b]. Navoiyshunos olim A.Abdug’afurov ta’kidlaganidek, Husayniy qisqa lavhada butun faoliyatini faxriya sifatida ifodalaydi: masjid, madrasalar, musofirxonalar qurdirgani, o’tmishdagi podsholar singari zulm-zo’rlikka, talonchilikka yo’l qo’ymay, bebosh,

muttaham qaroqchilarni butunlay yo'q qilganligini ta'kidlaydi. "Va Hirot "sonahallohu anil – ofoti" va navohiysida, ulcha xotirg'a kelur va ulcha sodiq-ul-qavl va sohibi vuquf eli arzg'a yetkururlar – shoyad mingga yaqin kishikim alarning ishi maoniy durlarin nazm silkiga tortmoq bo'lg'ay va diqqat gavharlarig'a vazn libosi zebu ziynatin bermak bo'lg'aykim hech davrda bulardek elning mingidan o'ni va hechda yuzidin biri yo'q erkandurur" [5, 12 b]. O'z tilidan aytilgan bu fikrlar odil Husayn Boyqaro siymosini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Risola Husayniy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologiyasi

Tadqiqotni bajarishda tarixiy- qiyosiy, qiyosiy- tipologik, kompleks tahlil usullaridan foydalanilgan. Natijada Husayniy "Risola" sining mazmun- mohiyati, g'oyaviy- badiiy xususiyatlari bilan birga Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy singari davrining buyuk siymolari haqidagi shoir ta'rif-u tavsifi madh va e'tiroflari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Husayniy va Navoiy munosabatlari ikki buyuk do'st, ikki davlat arbobi, ikki ijodkor negizida kuzatilgan. Tekshirishlar asnosida "Risolayi Husayn Boyqaro" ning Alisher Navoiy biografiyasini tiklash, davr adabiy muhitidagi mavqeyini aniqlashga xizmat qiladigan asar ekanligi isbotlangan.

Muhokamalar

Husayniy she'riyatida shoir qalbining sadosi eshitiladi. Husayn Boyqaro ko'ngil kechinmalari, ruhiy olami, tasviri bayt, misralar zamiriga singib ketadi. Sulton Husayn Boyqaroning muhtasham siymosi shikasta, bezovta Husayniy ma'naviy olami bilan to'qnashadi. Bu ikki qarama-qarshi holat ustalik bilan baytlarda hikoya qilinadi.

Husayn Boyqaro – Husayniy siymosining ma’rifatparvar hukmdor sulh va amniyatni mahkam tutgan rahnamo sifatida shakllanishida buyuk mutafakkir zotlar Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning hissasi, ko‘magi beqiyos bo‘lgan. Uch buyuk siymo – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro yaratgan maktab – Hirot adabiy muhiti asrlar o‘tsada, amaliy ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘zbek adabiyoti tarixi tamadduniga nazar solinsa, Xondamir, Zayniddin Vosifiy, Faxriy Hirotiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Fuzuliy, Ogahiy, Furqat, Muqimiy kabi yetuk ijodkorlar bu adabiy maktab ta’sirida kamolga yetgan.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishi, ayni paytda Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro asarlaridagi dalillardan ko‘rinadiki, Husayn Boyqaro tadbirkor va hushyor siyosatchi, tajribali va ehtiyotkor hukmdor bo‘lishi bilan birga nozikta’b shoir, sohibi devon ijodkor sifatida ikki buyuk shaxs – Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy dahosini e’zozlagan, ular bilan zamondosh ekanligidan doimo faxrlangan. “Risolai Husayn Boyqaro”da keltirilgan quyidagi mulohazalar fikrimizni dalillaydi: “Haq subhonahu va ta’olo bu nahif bandasining saltanati zamonida bir necha kishiga jilvayi zuhur berubturur va bu faqir majlisida alardin tashrifi huzur arzoniy tutubturkim, alarning vujudidin bu zamon jami’ azmanag’a rojihturur. Va bu davron barcha davrlardin mumtozki, bular tag’i mujibi ko‘p adoyi shukrtururki, andin notiqqa tili lolu qalam tili shikastamaqoldurur” [5, 11]. Husayniy podsholik zamonida yetishib chiqqan san’at ahli orasida eng buyuk zot Abdurahmon Jomiy ekanligini tan oladi. Benazir bilim sohibi, fozil shaxs sifatida hazrati Jomiyni e’tirof etadi. “Va ul jumlaning a’lamu afzali, fazoyil daryosining durri poki va valoyat aflokining xurshidi tobnoki, nazm javohirining sohib intizomi hazrati shayx-ul islomiy Mavlono Abdurahmon Jomiy, “sallamahullohu va abqo” tururkim, to falaki qadamiynihodu savobit va sayyordin yuz ming ko‘z bila olam ahlig’a nozirdurur, ko‘ziga andoq nodir xayol kelmamish va to mehri jahonnamo, balki xurshidi sipehrpaymo jahon davrig’a soyirdurur, partavi hargiz aningdek adim ul- misol ustiga tushmamish” [5, 11]. Risolada Abdurahmon Jomiyning shaxsiyati, g‘azalgo‘y, dostonnavis olim sifatidagi qudrati mohirona aniq dalillar asosida tasvirlangan.

Husayn Boyqaroning hayot yo'li, saltanatdorlik faoliyati bevosita Alisher Navoiy siymosi bilan tutashib ketgan. Husayn Boyqaroning Alisher Navoiy bilan do'stligi yaqin 40 yillik tarixga ega. Barcha qadimiy sarchashmalarda ularning zodagonlar farzandlari sifatida birga o'sganliklari qayd qilingan. "Tazkirat ush-shuaro", "Makorim ul-axloq", "Badoye ul-vaqoye'", "Majolis ul-ushshoq", "Tarixi Rashidiy", "Boburnoma", "Tarixi kasira" singari kamyob manbalarda bo'lg'usi daholarning maktabdosh ekanliklari zikr qilingan. Afsuski, ikki do'stning qaysi madrasada birga tahsil ko'rgani, qanday buyuk zotlardan saboq olganliklari haqida qo'lyozma manbalarda ma'lumot mavjud emas. Risoladagi mazkur dalillar Husayn va Alisherning shaxsiyati bolalikdan to umrining oxiriga qadar tutashib ketganligi, bu ikki buyuk shaxsning "do'sti joni" ekanliklari ancha batafsil zikr qilingan "To bu farxunda zamonu bu xujasta davronkim, bu notavonning boyri el kunumdin va u chodiriy kishi qoramdin qulluq silkidin ko'kaltoshliq poyasig'a yetgan va mulozamat tariqidin musohabat sarmoyasin kasb etgan haram kabutaridek pardasaroy xilvatida mahram va surohiy batidek shabiston suhbatida hamdam, haq so'z adosida dalir, ya'ni Mir Alisher, "aslahallohu shonahu" kim taxallusi "Navoiy" g'a mashhurdurur va ash'orida bu taxallus mastur" [5, 12]. Husayniy bolalikdan do'st tutingan Alisher Navoiyni ma'rifatparvar davlat arbobigina emas, davr adabiy muhitiga sarkorlik qilgan yo'lboshchi sifatida tan oladi. Navoiy dahosi turk dunyosidagi ulkan jasoratidan faxrlanadi.

Husayn Boyqaro do'stining xamsanavislik faoliyatiga diqqat qaratib Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy singari buyuklar qatorida martabasi ulug'langan shaxs ekanligini aniq dalillarda ifoda etadi. "Turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqanlarg'a turkiyoyin alfoz toru pudidin to'qulg'an hulla va harir kiyurdi. Va so'z gulistonida navbahori tab'idin ravonoso yog'inlar bila rango-rang gullar ochti va nazm daryosig'a sahobi fikratidin ruhparvar qatralar bila gunogun durlar sochti. Har sinf she'r maydonig'akim, takovar surdi, ul kishvarni tig'i zabon bila o'z hiytayi tasarrufig'a kiyurdi. Aning nazmi vasfida til qosir va bayon ojizturur" [5, 12-13 b]. Demak "Risola"da Alisher Navoiyning she'riyati, epik merosi turkiylar

orasidagina emas, Arab-u Ajamda ham benazir ekanligi ta'kidlangan. Navoiy dahosining turkiy til rivojiga qo'shgan hissasi beminnat sa'y-harakati hukmdor Husayn Boyqaroni ilhomlantiradi.

Xulosa

Bugun insoniyat globallashuv jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda uch buyuk siymo – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro shaxsiyatiga xos zakiylik, nuktadonlik, hamkorlik namunasi yosh avlodning tarbiya olishi, kamolga yetishida ibrat maktabini o'taydi. Zero, bu kabi zotlarning fozilligi va ilm-ma'rifatga homiyligi natijasida Hirot shahri o'z davrining gullab-yashnagan markaziga aylangan. "Kotiblar qiblasi" Sultonali Mashhadiy, "Sharq Rafaeli" Kamoliddin Behzod aynan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro tarbiyasi va homiyligida kamolga yetgan. Bu zotlar faoliyat yuritgan, yashagan muhit Sharq uyg'onish davri sifatida e'tirof etilgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Arasli, H. Husayn Boyqaro risolasi haqida. *O'zbek tili va adabiyoti*. 1966. № 3.
2. Husayn Boyqaro. Devon. Risola. Nashrga tayyorlovchilar: S.G'aniyeva va Sh.Abdullayeva. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1968.
3. Abdug'afurov A. Risolai Husayn Boyqaroning yaratilish tarixidan. *O'zbek tili va adabiyoti*. 1972. № 3.
4. Husayn Boyqaro. Risola. (Ulug' zamondoshlarimiz haqida). Nashrga tayyorlovchilar: A. Rustam va K. Hasan. – Toshkent: Sharq, 1991.
5. Shoh va shoir. Husayn Boyqaro. Risola. Devon. Nashrga tayyorlovchi: A.Erkinov. – Toshkent: Sharq, 1995.
6. Fayziyev T. Husayn Boyqaroning sirli o'limi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1995.
7. Fayziyev T. Husayn Boyqaro tarixi va fojiasi. – Toshkent: Fan, 1995.

8. Valixo‘jayev B. Mumtoz siymolar. II jild. – Toshkent : Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.